

## OILANING MAKTABGACHA TA'LIM MUASASASI BILAN OLIB BORILADIGAN FAOLIYATIDAGI HAMKORLIGINI TASHKIL ETILISHI

**Toshova Shaxnoza Tojinorovna**

TerDUPI Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi hamda bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikni qanday tashkil etish haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, sog'lom bola, rivojlanish, talablar, rivojlanish sohalari, rasmiy, norasmiy, tarbiyachi.

### **АННОТАЦИЯ**

*Идет дискуссия о важности формирования здорового образа жизни у дошкольников и о том, как организовать сотрудничество с родителями в этом процессе.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, здоровый ребенок, развитие, потребности, направления развития, формальное, неформальное, воспитатель.

### **ANNOTATION**

*There is a discussion about the importance of creating a healthy lifestyle in preschool children and how to organize cooperation with parents in this process.*

**Keywords:** preschool education, healthy child, development, requirements, areas of development, formal, informal, educator.

Har bir oilada ta'lim terbiya berishning o'ziga xos usul vosilari va bir qator qonun qoidalari bor. Bu tamoyillar esa bolaning tarbiyalanish faoliyatini samarali bo'lishini

taminlaydi. Bu qonun-qoidalar, rejimlarni nisbiy deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir bola –betakror ijtimoiy mavjudod bo‘lib, ularning o‘ziga xos shaxsiyati, ruhiyati va xulq-atvor bor. Shuning uchun shunga qarab muomila qilish zarurdir. Tarbiyada ota-onalarning masuliyati, etibori, obroi juda ahamiyatlidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan ota-onalar majlisining ahamiyati tarbiya jarayonida ota-onalarga yordam berish, ular orasida tajribalar almashish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari va boshlang‘ich sinflarda ota-onalar hamshira, psixolog hamda pedagoglar bilan birga tashviqot ishlari olib borish maqsadga muvofiqdir. Har bir bolaning o‘z dunyosi o‘z olami, dunyoqarashi, qiziqishlari bir olam bo‘ladi. Bola tarbiyasini tog‘ri yo‘lga qo‘yishga barchamiz birdek masulmiz. Ayniqsa psixologlar mashlati bugungi kunda juda muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta’limning quyi qismi bo‘lgan maktabgacha ta’lim yoshlarimizning yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga muhim poydevor bo‘lib hizmat qiladi. Bugungi kunda yutdboshimiz SH.M. Mirziyoyev tomonidan bu ta’lim turiga juda katta etibor qaratilgan holda ko‘plab qonun, qaror va farmoniyishlar qabul qilishi bilan birgalikda Prezidentimizning 2018 yilda 28-dekabrda Oliy Majlisga murojotnomasida quyidagi fikrlarni etirof etgan edilar. ”Ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsiplariga asoslanishi lozim, ya’ni ta’lim jarayonlari maktabgacha ta’lim tashkilotlardan boshlanishi va bu jarayon butun umr davom etishi lozimligini “takidlab o‘tganlar.<sup>12</sup> Bunda tarbiyachilar ota-onalarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilishi lozim. Buning uchun esa har bir oyda deydik haftada bir kuni ota-onalar kuni sifatida tashkil etilishi lozim. Bu jarayon xorijiy tajribalarga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda ota-onalar o‘z farzandlari bilan birgalikda o‘quv jarayonida ishtirok etadi. Albatta bu jarayon bolalar uchun juda maroqli va qiziqarli hisoblanadi.

<sup>12</sup> Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

Har bir jarayon faoliyat o'zining tarixiga egadir. Aynan pedagogik jarayon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, pedagogik faoliyatning paydo bo'lishi insoniyat tarixining qadim zamonlariga borib taqaladi. Bu kasb tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarda, kasb-xunar kollej va akademik liseylarda ta'lim-tarbiya beruvchi yoshlarni xayotga mexnatga tayyorlovchi kishilarni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz deb yuritiladi. O'qituvchilik kasbi eng qadimiy kasblardan xisoblanib pedagogik mahoratning paydo bo'lishi xam kishilik jamiyatida o'qitishning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan tajribalar: yurish-turish, xatti-xarakatlarining, mexnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarni aqliy, axloqiy, iloxiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish: yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish, u tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish. Ularni xayotga, mexnat faoliyatiga tayyorlash extiyoji natijasida qadim zamonlarda yoki ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi. Iloxiy ta'limotga ko'ra tarbiya bu -o'zligin anglash, o'z -o'zini boshqarish, tevarak atrofdagi olamni bilib olish yer yuzida va jamiyatdada yashash uchun xozirlik ko'rish. Tangri dargoxiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bulgach, diniy tarbiya qutlug' kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Mashxur chex pedagogi Ya.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar xam o'sha davrda bolalarga xar xil tarbiya berishgan, bu albatta ota-onalarni talablaridan kelib chiqilgan. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ba'zi ota-onalarda tajriba yetarli bo'lgan bo'lsa-da, ko'pchiliklarida yetarli bilim, ko'nikma, malaka yetishmagan. Ba'zan ota-onalar farzandlari tarbiyasi uchun kerakli vaqt ajratmaganlar.<sup>213</sup> Shu sababdan ko'p oilalar, o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli, tajribali maxsus kishilarga berib o'qitishgan. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagoglar deb atashganlar. Dastlabki ta'lim-tarbiya berishda ancha

---

<sup>13</sup> Yan.A.Komeniskiy«Buyuk didaktika»

murakkab vaziyatlarda bo‘lishgan. Buning asosiy sababi ta’lim -tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarda pedagogik mahorat yetishmagan.

Bugungi kunda esa tajribali o‘qimishli kadrlar yetarlicha bo‘lgan etabda biz endi ta’lim –tarbiya jarayonini mazmunli va bolalarni bilimli qilib tarbiyalash masalalari ustida bosh qotirmoqdamiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyatning qanday olib borilishi qanday tashkil etilishi xususida juda ko‘p qo‘llanmalar ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan .Bulardan biri ”Ilk qadam “davlat dasturini misol qilib aytish mumkin. Bu dastur maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy hujati sifatidir. Unda bir qator masalalar ko‘rsatib berilgan .

-Ota –onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrining inobatga olinishi .

- Ilk rivojlanish masalarida ota –onalarga bilim berish
- ota onalarning o‘quv tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga jalb etish
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etishi borasidagi tashabbusini qo‘llab – quvvatlash.

Ota-onalar bilan MTT xodimlari birgalikda faoliyatni tashkil etsish va uning mazmun mohiyati Mtt dagi sharoitlarga bog‘liqdir. Birgalikdagi faoliyati krakli darajada amalga oshirilayotgan joyda o‘zaro yordam bir-birini tushunish ,topshiririlgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar bilan faoliyat rashkil etish – tarbiyachining ,bolalarning pisixologik salomatligini saqlashga qaratilgan eng muhim jihatlardan biri bo‘lib ,u bolaning atrifidagi umumiy “ta’lim” maydonini shakllantirish ,kattalar tas’irini muvofiqlashtishni taminlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilot-birinchi ijtimoiy institut, ota-onalar kiradigan birinchi o‘quv tashkiloti ularning pedagogik ta’limi boshlanadigan dargoh hisoblanadi .Oila va bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi tushunmovchilik bolaga ko‘proq bog‘liq .Bizga ma’lumki ko‘pgina ota-onalar faqat bolaning ovqatlari bilan qiziqishadi ,ular bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari bu ota-onalar ish vaqtida faqat bolalarni boqadigan joy deb qarashadi.<sup>2</sup>Shu sababli biz tarbiyachilar ko‘pincha ota-onalar bilan aloqa qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelamiz .

Yuqorida keltirilgan muamolaro bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim .

-Ota-onalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun qulay sharoit yaratish .

-Ota-onalarning o‘quv va tarbiyaviy ko‘nikmalarini tiklash va boyitish .

-Bolalarni oilada va MTT da tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha yagona yondashuvni amalga oshirish .

Bugungi kunda ,yangi normative va mazmunli yondashuvlarni amalga oshirish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ochiqlik yaqin hamkorlik va o‘zaro aloqalarni nazarda tutadigan maqsadlar qo‘yiladi.

Ota-onalar nafaqat tashqi kuzatuvchilar,balki ta’lim jarayoning faol ishtirokchilari hamdir.Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan o‘zaro aloqasi bu –har bir tarbiyalanuvchining oilasi bilan hamkorlikda aloqalarini o‘rnatish ,bolalarni rivojlantirish va o‘qitish uchun harakatlarni birlashtirish ;o‘zaro tushunish manfaatlarining birlashishi ,oz’aro qo‘llanb quvvatlash ,ota-onalarning ko‘nikmalarini faollashtirish va boyitish muhitini yaratish,ularning o‘zlarining pedagogik imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlash .Ochiqlikni o‘rnatish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy ijtimoiy buyurtmachilari bo‘lgan ota-onalar katta ro‘l ega bo‘lgan kichik maktab hisoblanadi .Ularning ta’limiy funksiyalari har xil ,ammo ularning o‘zaro ta’siri bola rivojlanishi uchun har tomonlama zarur.

Oila tarbiyasi bola uchun ustuvor ahamiyatga ega,lekin ota-onalar har doim ham to‘g‘ri harakat qilishmaydi o‘z hatti harakatlarini nazoratga olishmaydi,shu sababdan oil aba maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi aloqa nuqtalarini topishdir.Bu munosabatlarning zamonaviy ko‘rinishi “Hamkorlik” “O‘zaro tasr” kabi tushunchalar bilan uzviy aloqadordir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *“Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan 802-sonli davlat ta’lim standarti ” 2021-yil*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyrug‘ining 1-ilovasi*
3. *Qodirova Fotima “Maktabgacha pedagogika. “ T.: Tafakkur bo‘stoni-2019*
4. *Qurbonov M“ Ijtimoiy pedogogika ” Nizomiy nomidagi TDPU-2017*